

## MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Uzokov Xurshid Ziyadullayevich**

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

E-mail: [uzoqovxurshid073@gmail.com](mailto:uzoqovxurshid073@gmail.com)

**Nosirxodjayeva Dilafruz Sobitxanovna**

i.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

E-mail: [dnosirkhodjaeva@gmail.com](mailto:dnosirkhodjaeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi moliyaviy risklarni baholashning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilgan hamda moliyaviy risklarni boshqarish usullari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy risk, suveren qarz inqirozi, kredit riski, valyuta riski, bozor riski, riskni boshqarish strategiyalari.

## FEATURES OF FINANCIAL RISK MANAGEMENT

**Abstract:** This thesis analyzes the specific aspects of financial risk assessment and examines the methods of financial risk management.

**Keywords:** financial risk, sovereign debt crisis, credit risk, currency risk, market risk, risk management strategies.

### KIRISH

Empirik tahlillarning aks ettirishicha, bugungi kunda moliyaviy risklarni to‘g‘ri baholash, yuqori aniqlikda bashorat qilish yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy inqirozlarni oldini olishga zamin yaratadi. Xususan, 1997-2000 yillardagi Osiyo inqirozi, 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi moliya bozori

infratuzilmasida moliya risklarini samarali boshqarish zaruriyati yuzaga kelganligini ko‘rsatdi.

Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tahminlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi (YI)ning ayrim mamlakatlarida suveren qarz inqirozining yuzaga kelish ehtimoli yuqori. Yuqoridagilardan anglashiladiki, moliyaviy risklarni boshqarish va hedjirlash bugungi moliya arxitekturasida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## **2.Mavzuga doir adabiyotlar sharhi:**

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni aks ettiradiki, Goodell J.W [1]. o‘zining maqolasida moliyaviy risklarni boshqarish va prognozlash instrumentlariga ko‘proq urg‘u bergan bo‘lsa, mahalliy iqtisodchilar: Rustamov va Abdullayeva (2018) o‘zlarining ilmiy maqolasida bank sohasidagi muhim risklarga ahamiyat qaratishgan [2]. Xususan, mazkur iqtisodchilar moliyaviy risklarni quyidagi kategoriyalarga bo‘lgan holda o‘rganishgan:

1. kredit riski – bankning qarz oluvchilar bilan tuzgan shartnomasida berilgan shartlarni to‘g‘ri bajarmasligi/nazorat qilmasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy risklar;
2. balanslashmagan likvidlilik riski – bank likvidlikni saqlash uchun yuqoriroq foiz stavkalarida resurslar jalb qilishi holatida yuzaga keladigan moliyaviy risklar;
3. bozor riski – bank aktivlarni shakllantirishda ishlatilgan moliyaviy instrumentlarning bozor kotirovkalari tebranishi holatida yuzaga keluvchi risklar;
4. valyuta riski – valyutalar kursi tebranishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy risklar.

Boshqa bir iqtisodchi Akbarov (2019) o‘zining ilmiy maqolasida [3] moliyaviy risklarning zamonaviy tendensiyalariga e‘tibor qaratgan. Unga ko‘ra, “jahon valyuta tizimidagi yangi yo‘nalish, ya’ni “Blokcheyn” texnologiyasi va uning asosidagi kriptovalyutalarni chuqur o‘rganish davr talabidir. Bitcoin zamonaviy xalqaro moliya bozorlarining innovatsion tarkibiy qismi sanaladi va rivojlanishda yuqori salohiyatga egadir. Pullarni legallashtirish, kelib chiqishi shubhali bo‘lgan pullarni


qonuniylashtirish va tozalash bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy masalalar o‘z yechimini topsa, Bitcoin bilan bog‘liq moliyaviy risklar ham pasayadi, o‘z navbatida, kriptovalyutaning bu tarmog‘ini keyingi o‘shiga olib keladi”.

### TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tahlillarimizning aks ettirishicha, moliyaviy risklar moliyaviy faoliyat natijasining maqsadli (target) parametrlardan sezilarli ravishda farq qilishi natijasida yuzaga keladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, moliyaviy risklarning yuzaga kelishida faoliyat natijasini bashorat qilishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar yoki uni modellashtirishdagi standart xatoliklar va og‘ishlar asosiy o‘rinni egallaydi. Umuman olganda, moliyaviy risklarni modellashtirish quyidagilar uchun zarur hisoblanadi:

- moliyaviy risklarni baholash, bashorat qilish;
- iqtisodiy omillarning o‘zgarishini turli ssenariylar asosida baholash;
- moliya insitutlari yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun;
- kapital bozori fiaskosining oldini olish.

O‘rganishlarimiz natijasida moliyaviy risklarni tahlil etishda, dastlab, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tizimlashtirish muhim hisoblanadi.



**1-chizma. Moliyaviy risklar klassifikatsiyasi.**

**Manba: muallif tomonidan tuzilgan.**

Bizningcha, moliyaviy risklarni umumiy holda fiskal, bank, bozor risklari kabi guruhlariga ajratgan holda tasniflash mumkin (1-chizma).

Tahlillarimizning ko‘rsatishicha, moliyaviy risklarni boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- riskni aniqlash (riskni aniqlash sub’ektning asosan qanday risklarga ko‘proq ta’sirchan ekanligini aniqlash va ular orasidagi bog‘lanishni topishdan iboratdir) va uning oqibatlarini baholash;
- turli ssenariylar asosida riskni boshqarish instrumentlari paketini ishlab chiqish;
- riskni kamaytirish hamda uning oqibatlarini yumshatish choralarini baholash;
- riskni kamaytirish choralarini tanlash.
- natijani ekspert nuqtai-nazaridan baholash.

**XULOSA**

Yuqoridagilarni umumlashtiradigan bo‘lsak, risklarni baholash sifat va miqdor jihatdan yondashuvni talab etadi.

Sifat tahlili – bu risklar manbalari va potensial risk omillarini aniqlashga qaratilgan tahlili bo‘lib, har bir moliyaviy risk unga ta’sir etuvchi omillarini aniqlashtirish orqali o‘z ifodasini baholanadi.

Miqdor jihatdan tahlil – bu moliyaviy riskni son jihatdan tizimlashtirish bo‘lib, uning darajasini aniqlashni talab etadi. O‘z navbatida, miqdoriy tahlil tarkibiga risk darajasini aniqlash mezonlarini tanlash, risklar tarkibini aniqlash, ma’lum usullardan foydalangan holda riskning haqiqatdagi darajasini aniqlash, istiqbolda riskning oshish yoki kamayish imkoniyatlarini baholash kiradi.

Har qanday risklar darajasini aniqlash umumiy yoki ixtisoslashgan baholash me’zonlaridan foydalanishni taqazo etadi. Umumiy mezonlar deganda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning majmuaviy tahlilidan kelib chiqib shakllanadigan holatni aytish mumkin. Ixtisoslashgan baholash mezoni esa moliyaviy riskning aynan xususiyatlarini

inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Masalan, valyuta riskini baholashda uning kursiga ta'sir qiluvchi omillarni tizimlashtirgan holda aniqlanadi. Aytaylik, valyuta birjasida yalpi talab va yalpi taklif muvozanati – bu valyuta kursiga ta'sir etuvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi va bu riskni baholashda inobatga olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu omillarni korxonaning mahsulotlar realizatsiyasi bilan iqtisodiy riskni baholashda foydalanish imkoni mavjud emas. Shu sababli ixtisoslashgan yondashuv risklarni aniqlash va baholashda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, risklarni boshqarish samaradorligini oshirishda risklarni aniqlash, baholash doir strategiyalar ishlab chiqish zarur ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Goodell J.W. (2020) COVID-19 and finance: Agendas for future research // Finance Research Letters. Vol. 3. P. 103-105.
2. Rustamov D.R., Abdullayeva M.H. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risk menejmentidan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №1, fevral, 2018-yil.
3. Akbarov H.M. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari va global moliyaviy barqarorlik//Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnal, №2, mart-aprel. 3-7 b.
4. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/risk-management/financial-risk-management-strategies/>